


## 2022- yil yanvar-noyabr oylari uchun Toshkent shahrida qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida Toshkent shahrida jami **28 236,2 mlrd. so'mlik** qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **102,8 %** ni tashkil etdi.




### 2022- yil yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.



**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



## 2022- yil yanvar-noyabr oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari hajmi



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**

2022- yil 1-dekabr holatiga ko'ra qurilish sohasida ro'yxatdan o'tgan jami korxona va tashkilotlar soni 9,9 mingta, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, 9,5 mingtani tashkil etib, o'tgan 2021- yilning mos davriga nisbatan 368 taga ko'paygan.

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan bino va inshootlar qurilishi ishlari hajmi 109,5 % ni tashkil qilib (jami qurilishdagi ulushi 62,9 %) ni tashkil qildi, fuqarolik obyektlarini qurish 80,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 20,0 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringin 113,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 17,1 %) tashkil etdi. Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko'payishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Bino va inshootlar qurilishi bo'yicha qurilish ishlaringin eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-noyabr oylaridagi jami qurilish ko'rsatkichiga nisbatan 110,2 % ni tashkil etdi.




## Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, (+,-)
	01.12.2021- yil	01.12.2022- yil	
<b>Toshkent shahar</b>	<b>8 752</b>	<b>9 584</b>	<b>832</b>
tumanlar:			
Bektemir	192	223	31
Mirzo Ulug'bek	1118	1222	104
Mirobod	816	836	20
Olmazor	737	779	42
Sirg'ali	470	530	60
Uchtepa	645	683	38
Chilonzor	1107	1213	106
Shayxontoxur	695	752	57
Yunusobod	1085	1175	90
Yakkasaroy	886	969	83
Yangi xayot	194	267	73
Yashnobod	807	935	128



## Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (% da), 01.12.2022- yil holatiga




**Ma'lumot uchun:** Toshkent shahrida qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Mirzo Ulug'bek (12,8 %), Chilonzor (12,7 %) va Yunusobod (12,3 %) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 10 046,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 99,0 % ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 35,6 % ni tashkil qildi.




## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da



**Maʼlumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Yunusobod tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **50,8 %**), Uchtepa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **46,7 %**), Shayxontohur tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **44,2 %**), Bektemir tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **41,8 %**) ga toʼgʼri keldi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar  
■ 2022- yil yanvar-oktabr oylari  
■ 2021- yil yanvar-oktabr oylari


Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022-yil yanvar-noyabrdagi nisbatan ko'payish kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **56,9 %**i bajarilib, 2021-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **3,8 %** punktga ko'paygan.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **109,5 %** ni tashkil etgan holda **16 074,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **7,5 %** ni tashkil etib, **2 115,6** mlrd. so'm miqdorida qayd etilib, 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **80,7 %** ni tashkil etdi.




## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **634,2** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʼsish surʼati 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **70,7 %** ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **2,2 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **27 602,0** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati **106,2 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **97,8 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2022- yil yanvar-noyabr

**59,6 %**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **59,6 %** yoki **16 839,3 mlrd. so'mni** tashkil etgan.

**38,5 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 6 474,8 mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi jami qurilish ishlaridagi ulushi **38,5 %** ni tashkil etdi.

**54,8 %**

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **9 231,1 mlrd. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **54,8 %** ni tashkil etdi.

**6,7 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **1 133,4 mlrd. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **6,7 %** ni tashkil etdi.



### Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-noyabr oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so'm)
<b>Toshkent shahar</b>	<b>28 236,2</b>	<b>102,8</b>	<b>16 839,3</b>
tumanlar:			
Uchtepa	1 887,4	65,1	927,2
Bektemir	879,2	117,2	548,9
Yunusobod	4 617,3	108,7	3 203,5
Mirzo Ulug'bek	3 042,8	90,2	1 679,1
Mirobod	3 462,0	117,1	1 905,3
Shayxontoxur	1 996,2	102,2	1 413,2
Olmazor	1 876,6	94,9	1 050,9
Sergeli	1 276,1	101,3	668,0
Yakkasaroy	2 456,0	108,5	1 328,4
Yashnabod	2 802,2	136,7	1 450,1
Yangihayot	1 083,0	107,8	723,2
Chilonzor	2 857,4	104,6	1 941,4



## Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, %da

2021- yil yanvar-noyabr

15,5




Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

25,6



Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

58,9



Bino va inshootlarni  
qurilishi

2022- yil yanvar-noyabr

17,1



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

20,0



Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

62,9



Bino va inshootlarni  
qurilishi

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

2022- yil yanvar-  
noyabr oylarida

Toshkent shahrida qurilish ishlari




## Bino va inshootlar qurilishi

**ulushi %da**

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **33,1 %** ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-noyabr oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **127,8 %** ni tashkil etdi. Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan 2021- yilning yanvar-noyabr oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **110,3 %** ni tashkil qildi, ulushi esa **55,0 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2021-yilning yanvar-noyabr oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **78,2 %**ni tashkil qildi, ulushi esa **11,9 %**ni tashkil etdi.






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi %da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **45,4 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **60,6 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **54,6 %** ni va 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **109,5 %** ni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-noyabr oylarida


Toshkent shahrida qurilish ishlari



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **33,3 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **121,7 %** ni tashkil etdi. **66,7 %** ulush kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **109,5 %** ni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-noyabr oylarida

Toshkent shahrida qurilish ishlari



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-noyabr

### Eng yuqori hajm (mlrd. so'm)

Yunusobod t.  
4 617,3

1

2  
Mirobod t.  
3 462,0

Mirzo ulug'bek t.  
3 042,8

3



### Eng kichik hajm (mlrd. so'm)

Bektemir t.  
879,2



1

2  
Yangihayot t.  
1 083,0

Sergeli  
1 276,1

3



## TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI



**Toshkent shahar  
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

*Aloqa telefoni: (71) 203-88-18(19)*

**2022- yil yanvar-  
noyabr oylarida**

**Toshkent shahrida qurilish ishlari**